

Zarafshon shahar hokimining
2025-yil 23-apreldagi
109-5-78-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**Shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari – shahar iqtisodiyot
va moliya bo'limi boshlig'ining 2025-yil I yarim yillikka mo'ljallangan**

ISH REJASI

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar (shahar hokimligi tarkibiy bo'linmalari, korxona va tashkilotlar)
“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalar to‘g‘risida			
1.	“O‘zbekiston – 2023” strategiyasini “Atrof muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish, muntazam ravishda muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul tashkilotlar faolyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish.	2025-yil I yarim yillikda	Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari A. Shoxmirzayev, Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, S. Ergashev
2.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Navoiy viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish to‘g‘risidagi qarori, respublika hududlariga tashriflari yakunlari yuzasidan tasdiqlangan bayonnomalardagi topshiriqlar ijrosini ta’minlash hamda mutasaddi bo‘lim, idoralar va boshqa tashkilotlar tomonidan sifatli bajarilishi bo‘yicha muntazam monitoring olib borish.	2025-yil I yarim yillikda	Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari A. Shoxmirzayev, Kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, S. Ergashev
3.	Eng og‘ir ahvoldagi 2 ta mahallaning infratuzilmasini yaxshilash dasturini amalga oshirish.	2025-yil I yarim yillikda	Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari A. Shoxmirzayev, shahar kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi, shahar tijorat banklari, shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi, Mahallalar uyushmasi shahar bo‘limi, S. Ergashev
4.	Band bo‘lmagan shaxslar, kambag‘al oilalarning ishsiz a‘zolarini va yoshlarni amaliy monomarkaz, davlat va nodavlat ta’lim	2025-yil I yarim	Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari A. Shoxmirzayev, shahar kambag‘allikni

	muassasalarida kasb-hunar, xorijiy tillar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish orqali ularning bandligiga ko'maklashish.	yillikda	qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi, Savdo-sanoat palatasining shahar bo'limi, shahar oila va xotin-qizlar bo'limi, S. Ergashev
5.	Kasb-hunarga o'qitish jarayonlarida xususiy sektor ulushini oshirish choralari ko'rish.	2025-yil I yarim yillikda	Shahar hokimining birinchi o'rinbosari A. Shoxmirzayev, shahar kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi, shahar oila va xotin-qizlar bo'limi, S. Ergashev
6.	2025-yil yakuni bilan shahar iqtisodiyotini yangi sifat bosqichiga olib chiqish uchun iqtisodiy o'sishni ta'minlash choralari ko'rish. Bunda, sanoat, bozor xizmatlari, qishloq xo'jaligi va qurilish ishlari o'sishiga alohida e'tibor qaratish.	2025-yil I yarim yillikda	Shahar hokimining birinchi o'rinbosari A. Shoxmirzayev, shahar iqtisodiyot va moliya bo'limi, shahar tijorat banklari, masalaga aloqador korxona (tashkilot)lar rahbarlari, S. Ergashev
7.	"Tashabbusli budjet" doirasidagi loyihalarni tashabbuskorlar, mahalla raisi va faollarning ish sifati yuzasidan roziligi olinganidan keyingina foydalanishga qabul qilish tartibini joriy etish. Tashabbusli budjetlashtirish jarayonlarini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish.	2025-yil I yarim yillikda	Shahar hokimining birinchi o'rinbosari A. Shoxmirzayev, kompleks tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasalar, S. Ergashev
8.	Bank tizimida yuzaga kelgan muammoli kreditlarning tizim barqarorligiga ta'siri va muammoli kreditlarni kamaytirish yuzasidan tijorat banklari hamda mas'ul tashkilotlar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish.	Har chorakda	Shahar hokimining birinchi o'rinbosari A. Shoxmirzayev, shahar tijorat banklari, masalaga aloqador korxona (tashkilot)lar rahbarlari, S. Ergashev
9.	Belgilangan soliq tushumi prognozlari doirasida tushumlar tushishi hamda qo'shimcha manbalarining aniqlanishi va davlat budjetiga undirilishi bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning 2025-yil I yarim yilligida bajarilishini tahlil qilish va II-chorak yakuni bilan erishiladigan natijalar.	2025-yil I yarim yillikda	Shahar hokimining birinchi o'rinbosari A. Shoxmirzayev, shahar soliq inspeksiyasi, shahar iqtisodiyot va moliya bo'limi, S. Ergashev
10.	2025-yil I chorakda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini 180 mlrd so'mga yetkazish choralari ko'rish.	2025-yil aprel	Shahar hokimining birinchi o'rinbosari A. Shoxmirzayev, shahar iqtisodiyot va moliya bo'limi, masalaga aloqador korxona (tashkilot)lar rahbarlari, S. Ergashev

11.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-oktabrdagi “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-347-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini nazorat qilish.	2025-yil har oyda	Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari A. Shoxmirzayev, shahar kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi, S. Ergashev
12.	Hududlarda ajratilgan kreditlarni qaytarish miqdoriga qarab, yangi resurslarni yo‘naltirish tizimini nazorat qilish.	Har oyda	Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari A. Shoxmirzayev, shahar tijorat banklari, masalaga aloqador korxona (tashkilot)lar rahbarlari, S. Ergashev
13.	Mahallalarda aholi bandligini ta‘minlash va ularni daromadli qilishga qaratilgan “Uychi” va “Sayxunobod” tajribalari doirasida amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilib borish.	Har chorakda	Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari A. Shoxmirzayev, shahar tijorat banklari, shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi, masalaga aloqador korxona (tashkilot)lar rahbarlari, S. Ergashev
14.	Mahallalarda aholi bandligini ta‘minlash hamda ularni daromadli qilishga qaratilgan “Zarbdor” va “G‘ijduvon” tajribalari doirasida amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilib borish.	Har chorakda	Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari A. Shoxmirzayev, shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi, masalaga aloqador korxona (tashkilot)lar rahbarlari, S. Ergashev
15.	Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida tizimli ishlarni tashkil etish.	Har oyda	Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari A. Shoxmirzayev, shahar tijorat banklari, S. Ergashev
16.	Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida	Har oyda	Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari A. Shoxmirzayev, shahar soliq inspeksiyasi, shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi, S. Ergashev

Zarafshon shahar hokimining
2025-yil 23-apreldagi
109-5-78-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Shahar hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosarining 2025-yil I yarim yillik

ISH REJASI

T/r	Ustuvor vazifalar. O‘rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas’ullar <i>(shahar hokimligi tarkibiy bo‘linmalari, korxona va tashkilotlar)</i>
I. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” davlat dasturi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakat dasturini amalga oshirishga oid ustuvor vazifalar			
1. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hamda “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” davlat dasturini amalga oshirishga oid ustuvor vazifalar			
1.	Ichimlik suv sarfi va hisobini tartibga solish, yo‘qotishlar darajasini kamaytirish, ichimlik va oqova suv tizimini raqamlashtirish orqali sohada zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy qilish choralarini ko‘rish.	Mart oyi	Shahar hokimi o‘rinbosari X. Oripov, “Navoiy suv ta‘minot” MChJ shahar filiali, shahar qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi,
2.	Autsorsing asosida 3 kilometr yo‘lni ekspluatatsiya qilish ishlariga xususiy sektorni jalb qilish.	Iyun oyi	Shahar hokimi o‘rinbosari X. Oripov, shahar obodonlashtirish boshqarmasi
3.	“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini 2025-yil “Atrof - muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”da amalga oshirilishi belgilangan ustuvor vazifalarni sifatli va o‘z vaqtida bajarilishini tashkil etish: shahar hokimi o‘rinbosari huzurida doimiy muhokama qilib borish.	Iyun oyi	Shahar hokimi o‘rinbosari X. Oripov, S.Safarov, Sh.Ikromov, korxona va tashkilotlar
4.	Energiya tejamkor texnologiyalarni joriy qilish, ichimlik suvi iste’molchilariga hisoblagichlar o‘rnatish orqali noreal qarzdorliklar	Iyun oyi	Shahar hokimi o‘rinbosari X. Oripov, “Navoiy suv ta‘minot” MChJ shahar filiali

	yuzaga kelishining oldini olish hamda iste'mol qilingan ichimlik suvining aniq hisob-kitobini yuritish asosida ichimlik suvi ishlab chiqarish tannarxini pasaytirishga erishilishini ta'minlash.		
II. O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, bayonlari va Hukumat qarorlari, farmoyishlari, bayonlari bilan yuklatilgan vazifalar ijrosini maqsadli o'rganish			
III. Ijtimoiy soha, iqtisodiyot tarmoqlari va respublika hududlarida amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligi tahlili			
5.	2025-yilda yangi uy-joylarni qurish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosini joyiga chiqqan holda o'rganish.	Har oyda	Shahar hokimi o'rinbosari X. Oripov, S.Safarov, Sh.Ikromov, shahar qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasi, tegishli korxona va tashkilotlar
6.	Shaharda "Yangi O'zbekiston" massivlari barpo etilishi, ko'p kvartirali uy-joylar qurilishi hamda ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturining ijrosini maqsadli o'rganib, har chorakda viloyat hokimligiga hisobot kiritib borish.	Har chorak keyingi oyning 10-sanasiga qadar	Shahar hokimi o'rinbosari X. Oripov, S.Safarov, Sh.Ikromov, shahar qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasi, tegishli korxona va tashkilotlar
7.	Aholini uy-joy bilan ta'minlash, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini yanada rivojlantirish dasturlari doirasida qurilishi amalga oshirilayotgan qurilish-montaj ishlari sifati bo'yicha monitoring o'tkazish va yakunlari bo'yicha tahliliy ma'lumot tayyorlash.	May oyi	S.Safarov, Sh.Ikromov, shahar qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi, Qurilishva uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasi, tegishli korxona va tashkilotlar
IV. Ijtimoiy soha, iqtisodiyot tarmoqlari va respublika hududlarida islohotlarning amalga oshirilishini shahar hokimi o'rinbosari huzurida ko'rib chiqish (majlis, sayyor majlis, taqdimot).			
8.	Kommunal xizmat ko'rsatish sohasida ishlar samaradorligini oshirish, boshqaruv kompaniyalari faoliyatini jonlantirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar natijadorligi to'g'risida.	Iyun oyi	Shahar hokimi o'rinbosari X. Oripov, S.Safarov, Sh.Ikromov, shahar qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi, tegishli korxona va tashkilotlar

Zarafshon shahar hokimining
2025-yil 23-apreldagi
109-5-78-Q/25-son qaroriga
3-ilova

Shahar hokimining o‘rinbosari – Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi boshlig‘ining 2025-yil I yarim yillik

ISH REJASI

T/r	Ustuvor vazifalar. O‘rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas’ullar <i>(viloyat hokimligi tarkibiy bo‘linmalari, korxona va tashkilotlar, shahar, tuman hokimliklari)</i>
I. “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi, “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” davlat dasturi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakatlar dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalar			
“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” davlat dasturini amalga oshirishga oid ustuvor vazifalar			
1.	“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturida investitsiyalar va tashqi savdo sohasiga oid vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	2025-yil I yarim yillikda	Shahar hokimining investitsiyalar, sanoat va tashqi savdo masalalari bo‘yicha o‘rinbosari S.Ebotov, shahar investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi, Savdo-sanoat palatasi shahar bo‘limi, shahar tijorat banklari
2.	Xitoy Xalq Respublikasi bilan ikki va ko‘p tomonlama aloqalarni kengaytirish.	2025-yil I yarim yillikda	Shahar hokimining investitsiyalar, sanoat va tashqi savdo masalalari bo‘yicha o‘rinbosari S.Ebotov, shahar investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi, Savdo-sanoat palatasi shahar bo‘limi, shahar tijorat banklari
II. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakatlar dasturini amalga oshirishga oid ustuvor vazifalar			

3.	Eksport hajmini 2030-yilga borib 2 baravar oshirish va 1,1 mlrd AQSh dollariga yetkazish, shu jumladan 2025-yilda eksportning kamida 5 foizga o'sishini ta'minlash.	2025-yil I yarim yillikda	Shahar hokimining investitsiyalar, sanoat va tashqi savdo masalalari bo'yicha o'rinbosari S.Ebotov, shahar investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, Savdo-sanoat palatasi shahar bo'limi, tuman tijorat banklari
4.	Eksportchi korxonalar sonini 6 taga yetkazish, shu jumladan 2025-yilda eksportchilar sonini 5 taga va mahsulotlar turini 7 taga yetkazish.	2025-yil I yarim yillikda	Shahar hokimining investitsiyalar, sanoat va tashqi savdo masalalari bo'yicha o'rinbosari S.Ebotov, shahar investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, Savdo-sanoat palatasi shahar bo'limi, shahar tijorat banklari
5.	Eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 2030-yilga qadar 1,6 baravar ko'paytirish.	2025-yil I yarim yillikda	Shahar hokimining investitsiyalar, sanoat va tashqi savdo masalalari bo'yicha o'rinbosari S.Ebotov, shahar investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, Savdo-sanoat palatasi shahar bo'limi, shahar tijorat banklari
III. Ustuvor vazifalarni amalga oshirish bo'yicha amaliy-choralar tadbirlar hamda ijtimoiy soha, iqtisodiyot tarmoqlari va respublika hududlarida amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligi tahlili			
6.	To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining holatini monitoring qilish va joyiga chiqqan holda o'rganish.	2025-yil I yarim yillikda	Shahar hokimining investitsiyalar, sanoat va tashqi savdo masalalari bo'yicha o'rinbosari S.Ebotov, shahar investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, Savdo-sanoat palatasi shahar bo'limi, shahar tijorat banklari

7.	2025-yilda Xitoy davlati bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida investitsiya va kreditlarni o'zlashtirish bo'yicha manzilli dasturning bajarilishini monitoring qilib borish.	2025-yil I yarim yillikda	Shahar hokimining investitsiyalar, sanoat va tashqi savdo masalalari bo'yicha o'rinbosari S.Ebotov, shahar investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, Savdo-sanoat palatasi shahar bo'limi, shahar tijorat banklari
8.	Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar faoliyatini, shu jumladan, investor tomonidan o'zining investitsiya majburiyatlari to'liq bajarilishini tizimli tahlil qilish, joyiga chiqqan holda o'rganish.	Har oyda	Shahar hokimining investitsiyalar, sanoat va tashqi savdo masalalari bo'yicha o'rinbosari S.Ebotov, shahar investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, Savdo-sanoat palatasi shahar bo'limi, shahar tijorat banklari
IV. O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, bayonlari va Hukumat qarorlari, farmoyishlari, bayonlari bilan yuklatilgan vazifalar ijrosini maqsadli o'rganish			
9.	2025-yil investitsiya dasturining ijrosini maqsadli o'rganish.	Aprel oyi	Shahar hokimining investitsiyalar, sanoat va tashqi savdo masalalari bo'yicha o'rinbosari S.Ebotov, shahar investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, Savdo-sanoat palatasi shahar bo'limi, shahar tijorat banklari
10.	2025-yil uchun belgilangan eksport prognoz ko'rsatkichlari ijrosini maqsadli o'rganish.	May oyi	Shahar hokimining investitsiyalar, sanoat va tashqi savdo masalalari bo'yicha o'rinbosari S.Ebotov, shahar investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, Savdo-sanoat palatasi shahar bo'limi, shahar tijorat banklari
V. Ijtimoiy soha, iqtisodiyot tarmoqlari va respublika hududlarida islohotlarning amalga oshirilishini O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri huzurida ko'rib chiqish			

11.	2025-yil investitsiya dasturining ijrosini ta'minlash bo'yicha shahar hokimligi o'rinbosarlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi to'g'risida.	Mart-iyun oyi	Shahar hokimining investitsiyalar, sanoat va tashqi savdo masalalari bo'yicha o'rinbosari S.Ebotov, shahar investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, Savdo-sanoat palatasi shahar bo'limi, shahar tijorat banklari
VI. Ijtimoiy soha, iqtisodiyot tarmoqlari va respublika hududlarida islohotlarning borishi masalalarini O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosarlari huzurida ko'rib chiqish			
12.	2025-yil uchun belgilangan eksport prognoz ko'rsatkichlari ijrosi to'g'risida.	Fevral, aprel, iyun oyi	Shahar hokimining investitsiyalar, sanoat va tashqi savdo masalalari bo'yicha o'rinbosari S.Ebotov, shahar investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, Savdo-sanoat palatasi shahar bo'limi, shahar tijorat banklari
13.	Shahar hokimligi tomonidan aniqlangan tadbirkorlik subyektlari, jumladan eksportchi va xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tomonidan ko'tarilgan muammoli masalalarni bartaraf etish choralari to'g'risida.	Har oyda	Shahar hokimining investitsiyalar, sanoat va tashqi savdo masalalari bo'yicha o'rinbosari S.Ebotov, shahar investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, Savdo-sanoat palatasi shahar bo'limi, shahar tijorat banklari
1. 2025-yil I yarim yillikda belgilangan ustuvor vazifalarini amalga oshirish bo'yicha takliflar			
14.	Elektron kooperatsiya portali orqali shartnomalar qamrovini yanada oshirish bo'yicha takliflarni shakllantirib borish.	Har chorakda	Shahar hokimining birinchi o'rinbosari, shahar investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, Savdo-sanoat palatasi shahar bo'limi, tegishli tashkilotlar
2. 2025-yil I yarim yillikda belgilangan ustuvor vazifalarini amalga oshirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar natijadorligi tahlillari			
15.	Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqilgan loyihalarni belgilangan maqsadli parametrlariga erishishning tizimli monitoring yuritish, uning natijalariga ko'ra aniqlangan	Doimiy	Shahar hokimining birinchi o'rinbosari, shahar investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, Savdo-sanoat palatasi shahar bo'limi, tegishli

	muammo va kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'rish.		tashkilotlar
16.	Shaharda mahalliy tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni realizatsiya qilinishiga ko'maklashish maqsadida hududiy va respublika miqyosida tadbirkorlar o'rtasida kooperatsiya aloqalarini o'rnatilishida amaliy yordam ko'rsatish.	Doimiy	Shahar hokimining birinchi o'rinbosari, shahar investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, Savdo-sanoat palatasi shahar bo'limi, tegishli tashkilotlar
17.	Mahalliy sanoat korxonalarini elektron kooperatsiya portalidan ro'yxatdan o'tkazish hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarini joylashtirish jarayonlariga o'rnatilgan tartibda amaliy yordam ko'rsatish.	Doimiy	Shahar hokimining birinchi o'rinbosari, shahar investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, Savdo-sanoat palatasi shahar bo'limi, tegishli tashkilotlar
18.	Respublikada hamda hududlarda o'tkaziladigan "tarmoqlararo sanoat yarmarkasi"da shaharda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarining faol va samarali ishtirokini ta'minlash.	Reja grafik asosida	Shahar hokimining birinchi o'rinbosari, shahar investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, Savdo-sanoat palatasi shahar bo'limi, tegishli tashkilotlar
19.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 9-iyundagi PF-6244-son Farmonidagi tegishli topshiriqlar ijrosini maqsadli o'rganish.	Doimiy	Shahar hokimining birinchi o'rinbosari, shahar investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, Savdo-sanoat palatasi shahar bo'limi, tegishli tashkilotlar
20.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Navoiy viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 12- dekabrda PQ-430-son qarori hamda 2024-yil 31- oktabr – 1-noyabr kunlari Navoiy viloyatiga tashriflari bo'yicha tasdiqlangan 47-sonli majlis bayonining ijrosini mutasaddi korxona, tashkilotlar, xo'jalik birlashmalarida ta'minlash.	2025 yil I yarim yillikda	Shahar hokimining birinchi o'rinbosari, Shahar investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, Savdo-sanoat palatasi shahar bo'limi, tegishli tashkilotlar

**Zarafshon shahar hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosarining
2025-yil I yarim yillikka mo'ljallangan**

ISH REJASI

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar
I. 2025-yil I yarim yillikda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha tegishli yillik dasturlar hamda Vazirlar Mahkamasining hamda Navoiy viloyatining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalari			
1.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmoniga muvofiq “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini 2024-yilda amalga oshirish yuzasidan belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish , muntazam ravishda muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish.	2025-yil I yarim yillikda	Shahar hokimining o‘rinbosari S. Uvaytov, tegishli korxona (tashkilot) va muassasalar, B. Dusanov
2.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Navoiy viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 12-dekabrda PQ–430-son qarori ijrosini ta’minlash bo‘yicha tashkilot va muassasalar tomonidan sifatli bajarilishi bo‘yicha muntazam monitoring olib borish	2025-yil I yarim yillikda	Shahar hokimining o‘rinbosari S. Uvaytov, tegishli korxona (tashkilot) va muassasalar, B. Dusanov
3.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining respublika hududlariga tashriflari yakunlari yuzasidan tasdiqlangan bayonnomalardagi topshiriqlari tashkilot va muassasalar tomonidan sifatli bajarilishi bo‘yicha muntazam monitoring olib borish.	2025-yil I yarim yillikda	Shahar hokimining o‘rinbosari S. Uvaytov, tegishli korxona (tashkilot) va muassasalar, B. Dusanov
4.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida ijtimoiy sohani rivojlantirish bo‘yicha o‘tkazilgan majlislar yakunlariga muvofiq tasdiqlangan bayonnomalardagi topshiriqlarni sifatli bajarish.	2025-yil I yarim yillikda	Shahar hokimining o‘rinbosari S. Uvaytov, tegishli korxona (tashkilot) va muassasalar, B. Dusanov

5.	Yoshlarni ommaviy sport tadbirlariga jalb qilish, jumladan mahallalar va ta'lim muassasalarida sport turlari bo'yicha ommaviy sport musobaqalari qamrovini oshirish; mahallalarda istiqomat qiluvchi yoshlar o'rtasida; umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari o'rtasida; professional ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida; oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida ommaviy sport musobaqalarini tashkil etish.	2025-yil I yarim yillikda	Shahar hokimining o'rinbosari S. Uvaytov, shahar sport maktabi, shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi, tegishli korxona (tashkilot) va muassasalar
6.	Aholini sport turlariga jalb qilish orqali jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilar qamrovini 28 foizdan 33 foizga yetkazish: shaharda aholining jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug'ullanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish; mahallalarda aholining ommaviy sport bilan shug'ullanishlari uchun moddiy-texnik bazasi mustahkamlash; sport inshootlarini zamonaviy sport jihozlari bilan ta'minlash; umumiy o'rta ta'lim, professional va oliy ta'lim muassasalari o'quvchi-talabalari o'rtasida ommaviy sport turlariga bosqichma-bosqich keng jalb qilish maqsadida targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish.	2025-yil iyun oyi	Shahar hokimining o'rinbosari S. Uvaytov shahar sport maktabi, shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi, tegishli korxona (tashkilot) va muassasalar
7.	Maktabgacha ta'lim qamrovini 100,0 foizga yetkazish , aholini sportga keng jalb qilish, yoshlarni kasbga o'qitish, ayollarda uchraydigan kasalliklarni barvaqt aniqlash bo'yicha ko'rsatkichlarga erishish	2025-yil iyun	Shahar hokimining o'rinbosari S. Uvaytov shahar sport maktabi, shahar tibbiyot birlashmasi, shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi, tegishli korxona (tashkilot) va muassasalar
8.	Xavf guruhiga mansub 35-55 yoshdagi ayollarda bachadon bo'yni saratonini va 45-65 yoshdagi ayollarda ko'krak bezi saratonini erta aniqlash bo'yicha yillik tarmoq rejalarni tuzish.	2025-yil mart	Shahar hokimining o'rinbosari S. Uvaytov, shahar tibbiyot birlashmasi, B. Dusanov
9.	40 va undan katta yoshdagi aholida yuqumli bo'lmagan kasalliklarni erta aniqlash maqsadida tarmoq rejasini tuzish.	2025-yil mart	Shahar hokimining o'rinbosari S. Uvaytov, shahar tibbiyot birlashmasi, B. Dusanov
10.	Katta yoshdagi aholi uchun to'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollik va yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi bo'yicha tarqatma materiallar, ijtimoiy roliklar tayyorlash.	2025-yil mart oyidan boshlab	Shahar hokimining o'rinbosari S. Uvaytov, shahar tibbiyot birlashmasi, B. Dusanov

11.	Yoshlarning salohiyati, iste'dodi va tashabbuslarini to'laqonli ro'yobga chiqarish maqsadida "Besh tashabbus olimpiadasi" tadbirlarini 2025-yilda yuqori saviyada tashkil etish.	2025-yil mart oyidan boshlab	Shahar hokimining o'rinbosari S. Uvaytov, shahar yoshlar ishlari bo'limi
12.	Yoshlar o'rtasida tadbirkorlikni keng ommalashtirish va biznes bilan shug'ullanishga qo'shimcha imkoniyatlarni yaratish maqsadida: a) oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida ajratilayotgan kreditlarning kamida 40 foizini yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga yo'naltirish; b) quyidagilarni nazarda tutuvchi "Yosh tadbirkor" tanlovlarini o'tkazish amaliyotini yo'lga qo'yish; Shahar yoshlar ishlari bo'lim tomonidan tanlov asosida "mahalla – tuman – viloyat - respublika" bosqichlarida yoshlarning istiqbolli biznes loyiha va g'oyalarini saralash. Bunda nogironligi bo'lgan yosh tadbirkorlar loyiha va g'oyalariga alohida e'tibor qaratish.	2025-yil mart oyidan boshlab	Shahar hokimining o'rinbosari S. Uvaytov, shahar yoshlar ishlari bo'limi
13.	"Har bir mahalladan ikki nafar dasturchi" dasturi doirasida mahallalarda yoshlar yetakchilari tomonidan mahalla faollari ishtirokida axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasiga qiziquvchi yoshlar aniqlanib, ularni ingliz va boshqa xorijiy tillarga o'qitish hamda sertifikatlar olishini tashkil etish.	2025-yil I yarim yillikda	Shahar hokimining o'rinbosari S. Uvaytov, O'zbekiston mahallalari uyushmasi shahar bo'limi, shahar yoshlar ishlari bo'limi
14.	Yoshlarning bilim olishga va kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirish maqsadida "Kitob – ko'ngil bulog'i" tanlovlarini o'tkazish.	2025-yil I yarim yillikda	Shahar hokimining o'rinbosari S. Uvaytov, O'zbekiston mahallalari uyushmasi shahar bo'limi, shahar yoshlar ishlari bo'limi
I. "O'zbekiston – 2030" strategiyasiva uni amalga oshirish bo'yicha tegishli yillik dasturlar hamda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakatlar dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlashda qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlar va chora-tadbirlar			
15.	Mahallalarda "Eng namunali mahalla raisi" ko'rik tanlovini o'tkazishni tashkil etish.	2025-yil mart	Shahar hokimining o'rinbosari S. Uvaytov, O'zbekiston mahallalari uyushmasi shahar bo'limi, shahar yoshlar ishlari bo'limi
16.	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachi-pedagog kadrlarni psixologik metodika va testlar orqali saralash mexanizmlarini ishlab chiqib, ularni joriy etish yuzasidan takliflar tayyorlash.	2025-yil aprel	Shahar hokimining o'rinbosari S. Uvaytov, shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi, tegishli korxona (tashkilot) va muassasalar

17.	Yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat g'oyasi atrofida birlashtirish hamda Vatan himoyachilarini tarbiyalashda uzviylikni ta'minlash. “Vatan tayanchi” otryadlari o'rtasida “Vatanparvarlar” harbiy-sport musobaqalarini o'tkazish.	2025-yil belgilangan reja asosida	Shahar hokimining o‘rinbosari S. Uvaytov, shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi, tegishli korxona (tashkilot) va muassasalar
18.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar uchun ming kitob” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 28-noyabrdagi PQ-380-son qarori ijrosini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar tahlili.	2025-yil I yarim yillikda	Shahar hokimining o‘rinbosari S. Uvaytov, shahar yoshlar ishlari bo'limi
II. Ilmiy-tadqiqot institutlari va boshqa ilmiy tashkilotlari bilan hamkorlikda ijtimoiy soha, iqtisodiyot tarmoqlari va respublika hududlarida amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligini hamda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni ilmiy tahlil etish hamda natijalari asosida sohalarni rivojlantirish, innovatsiyalarni joriy qilish va yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan tadbirlar			
19.	Yoshlarga oid davlat siyosati ijrosi monitoringini olib borish, yoshlar muammolarini tizimli o'rganish va ularni hal etishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqish; Yoshlar duch kelayotgan dolzarb muammolar, ularning barqaror rivojlanishiga to'siq bo'layotgan tahdidlarni aniqlash.	2025-yil I yarim yillikda	Shahar hokimining o‘rinbosari S. Uvaytov, shahar yoshlar ishlari bo'limi
III. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosatida ko‘rib chiqiladigan masalalar			
20.	30-iyun – Yoshlar kuni bayramini yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazish.	2025-yil iyun	Shahar hokimining o‘rinbosari S. Uvaytov, shahar yoshlar ishlari bo'limi

Zarafshon shahar hokimining
2025-yil 23-apreldagi
109-5-78-Q/25-son qaroriga
5-ilova

Zarafshon shahar hokimining o‘rinbosari – oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘ining 2025-yil I yarim yillikka mo‘ljallangan

ISH REJASI

T/r	Ustuvor vazifalar. O‘rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas’ullar (tegishli korxona va tashkilotlar)
I. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hamda “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” davlat dasturini amalga oshirishga oid ustuvor vazifalar			
1.	Xotin-qizlarning axborot texnologiyalaridan keng foydalanishini qo‘llab-quvvatlash maqsadida 200 nafar xotin-qizni axborot texnologiyalari yo‘nalishidagi o‘quv kurslariga jalb qilish.	Fevral- iyun oylari	Shahar hokimi o‘rinbosari – oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i L.Tursunova raqamli iqtisodiyotni joriy etish bo‘yicha loyihalar menejeri, shahar kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi, shahar yoshlar ishlari bo‘limi, shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi, shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi
2.	Yaqin qarindoshlar va erta nikohlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.	Aprel- iyun oylari	Shahar hokimi o‘rinbosari – oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i L.Tursunova, shahar tibbiyot birlashmasi, shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi, Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning shahardagi mutaxassisi
3.	Xotin-qizlarni mehnat bozorida raqobatbardosh kasb-hunar turlariga o‘qitish orqali bandligini ta’minlashga ko‘maklashish hamda ularning tadbirkorlik malakasini rivojlantirish maqsadida 232 nafar xotin-qizni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish choralari ko‘rish; 322 nafar xotin-qizni ishga joylashtirishga ko‘maklashish.	2025 yil I yarim yillikda	Shahar hokimi o‘rinbosari – oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i L.Tursunova, shahar kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi, Savdo-sanoat palatasi shahar bo‘limi, “Hunarmand” uyushmasi shahar bo‘limi, tijorat banklari,

4.	Oilalarda huquqiy madaniyatni shakllantirish, oiladagi zo‘ravonlik holatlarining oldini olish, notinch oilalar bilan ishlash, ular o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish.	2025 yil I yarim yillikda	Shahar hokimi o‘rinbosari – oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i L.Tursunova, shahar ichki ishlar bo‘limi, shahar adliya bo‘limi, Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning shahardagi mutaxassisi
5.	“Xavfsiz migratsiya” tamoyili asosida 40 nafar xotin-qizni xorijiy til va mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblarga o‘qitish.	2025 yil I yarim yillikda	Shahar hokimi o‘rinbosari – oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i L.Tursunova, shahar kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi, shahar oila va xotin-qizlar bo‘limi, shahar ichki ishlar bo‘limi, shahar adliya bo‘limi, Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning shahardagi mutaxassisi, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi shahar bo‘linmasi
6.	Uzoq muddatga yashash joyidan chiqib ketgan ayollarning oila a‘zolari va farzandlari bilan ijtimoiy-psixologik ishlarni olib borish.	Fevral oyi	Shahar hokimi o‘rinbosari – oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i L.Tursunova, shahar ichki ishlar bo‘limi, shahar adliya bo‘limi, Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning shahardagi mutaxassisi, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi shahar bo‘limi

7.	Ish bilan band bo'lmagan xotin-qizlar bandligiga ko'maklashish maqsadida 15 ta mahallalarda bosqichma-bosqich Xotin-qizlarning bandligini ta'minlash va salomatligini mustahkamlash markazlarini tashkil etish.	2025 yil I yarim yillikda	Shahar hokimi o'rinbosari – oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i L.Tursunova, adliya bo'limi, Kadastr agentligi shahar bo'limi, O'zbekiston mahallalari uyushmasi shahar bo'limi, Savdo-sanoat palatasi shahar bo'limi.
8.	Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oilaviy nizolarning oldini olish hamda xotin-qizlarga huquqiy va psixologik yordam ko'rsatish maqsadida shaharda Oila va xotin-qizlar maskanlari faoliyatini yo'lga qo'yish.	2025 yil I yarim yillikda	Shahar hokimi o'rinbosari – oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i L.Tursunova, shahar adliya bo'limi, shahar qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi, shahar tibbiyot birlashmasi
9.	Davlat boshqaruvining turli sohalarida faoliyat olib borayotgan faol xotin-qizlarning kasbiy va intellektual salohiyatini oshirish, ularni rahbarlikka tayyorlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasida “Rahbar ayollar maktabi” o'quv dasturi doirasida qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil etishda hamkorlik qilish.	2025 yil I yarim yillikda	Shahar hokimi o'rinbosari – oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i L.Tursunova
10.	Oilalarga ta'sirchan metodik, konsultativ va amaliy yordam ko'rsatishning samarali tizimini yaratish maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini yaratish uchun takliflar ishlab chiqish.	2025 yil I yarim yillikda	Shahar hokimi o'rinbosari – oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i L.Tursunova
11.	Sog'lom oilani shakllantirish, barqaror tug'ilish ko'rsatkichlariga erishish, irsiy va nogiron tug'ilishlarning oldini olishga qaratilgan “Mas'uliyatli ota-onalik” loyihasini amaliyotga joriy etish.	Mart- iyun oylari	Shahar hokimi o'rinbosari – oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i L.Tursunova

12.	Oilaviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish, oilada qaynona-kelin munosabatlarini mustahkamlash, ularni rag‘batlantirish va munosib taqdirlash hamda bu boradagi ijobiy tajribalarni keng ommalashtirish maqsadida “Yangi O‘zbekistonning ibratli oilasi” ko‘rik-tanlovini o‘tkazish.	Aprel-may oylari	Shahar hokimi o‘rinbosari – oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i L.Tursunova, shahar tibbiyot birlashmasi, shahar yoshlar ishlari bo‘limi, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi shahar bo‘linmasi, “Nuroni” jamg‘armasi shahar bo‘limi, Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning shahardagi mutaxassisi,
II. O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, bayonlari va Hukumat qarorlari, farmoyishlari, bayonlari bilan yuklatilgan vazifalar ijrosini maqsadli o‘rganish			
13.	O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta‘minlashda 15 ta mahallada ko‘rilayotgan chora-tadbirlarning natijadorligi to‘g‘risida. <i>O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni.</i>	Fevral oyi	Shahar hokimi o‘rinbosari – oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i L.Tursunova, shahar ichki ishlar bo‘limi, shahar adliya bo‘limi, shahar tibbiyot birlashmasi, shahar maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi
14.	Reproduktiv salomatlikni mustahkamlash bo‘yicha tibbiyot birlashmasi tomonidan amalga oshirilgan ishlar natijadorligi to‘g‘risida. <i>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ayollar orasida onkologik kasalliklarni nazorat qilish tizimini takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida ” 2024-yil 22-noyabrdagi PQ-402-son qarori</i>	Mart oyi	Shahar hokimi o‘rinbosari – oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i L.Tursunova, shahar tibbiyot birlashmasi
15.	Shahardagi 15 ta mahallada xotin-qizlarni kasb-hunarga o‘qitish va bandligini ta‘minlash, tadbirkorlikka jalb qilish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida. <i>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 21-dekabrdagi PQ-401-son qarori.</i>	Aprel oyi	Shahar hokimi o‘rinbosari – oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i L.Tursunova, kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi, Savdo-sanoat palatasi shahar bo‘limi, shahardagi tijorat banklari

16.	Alisher Navoiy, Oltin vodi, Tinchlik, Yulduz mahallalarida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, iqtidorli xotin-qizlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar holati to'g'risida. <i>Vazirlar Mahkamasining "Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga talabgorlarni tanlash va ularning hujjatlarini taqdim etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2024-yil 1-noyabrdagi 731-son qarori</i>	May oyi	Shahar hokimi o'rinbosari – oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i L.Tursunova, Raqamli iqtisodiyotni joriy etish bo'yicha loyihalar menejeri, shahar madaniyat bo'limi
17.	"Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida shahardagi 15 ta mahallada tomonidan amalga oshirilgan ishlar natijadorligi to'g'risida. <i>Vazirlar Mahkamasining "Xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 31-martdagi 145-son qarori.</i>	Iyun oyi	Shahar hokimi o'rinbosari – oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i L.Tursunova, shahar kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi AT "Xalq banki" shahar filiali tegishli korxona (tashkilot) rahbarlari
III. Ijtimoiy soha, iqtisodiyot tarmoqlari va respublika hududlarida amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligi tahlili			
18.	Mahallalardagi xotin-qizlar faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish.	Apr el oyi	Shahar hokimi o'rinbosari – oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i L.Tursunova
19.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlar bandligini oshirish va salomatligini mustahkamlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2022-yil 21-sentabrdagi PQ-376-son qarori ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish.	May oyi	Shahar hokimi o'rinbosari – oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i L.Tursunova, shahar adliya bo'limi, shahar kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi, Kadastr agentligi shahar bo'limi
20.	Xotin-qizlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlar bilan olib borilayotgan ishlarni tahlil qilish.	May oyi	Shahar hokimi o'rinbosari – oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i L.Tursunova, shahar ichki ishlar bo'limi, shahar adliya bo'limi
21.	Xotin-qizlar bandligini ta'minlashga ko'maklashish borasidagi ishlarni tahlil qilish.	Iyun oyi	Shahar hokimi o'rinbosari – oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i L.Tursunova, shahar

			kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
IV. Shahar hokimligining majlislarida ko'rib chiqiladigan masalalar			
22.	O'zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida” gi Qonuni ijrosi holati to'g'risida.	Mart oyi	Shahar hokimi o'rinbosari – oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i L.Tursunova, shahar adliya bo'limi, shahar ichki ishlar bo'limi
23.	oil-mahalla-ta'lim muassasasi hamkorligi samaradorligini oshirish chora-tadbirlar rejasi ijrosi yuzasidan hamkor tashkilotlar bilan amalga oshirilgan ishlar holati to'g'risida.	Iyun oyi	Shahar hokimi o'rinbosari – oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i L.Tursunova, 1-son, 2-son politexnikumlar, shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi, shahar ichki ishlar bo'limi, shahar tibbiyot birlashmasi
V. Ijtimoiy soha, iqtisodiyot tarmoqlari va shahar hududida islohotlarning amalga oshirilishini shahar hokimi o'rinbosari boshchiligida ko'rib chiqish (majlis, sayyor majlis, taqdimot)			
24.	“O'zbekiston – 2030” strategiyasi hamda “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” davlat dasturi ijrosi to'g'risida.	Mart oyi	Shahar hokimi o'rinbosari – oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i L.Tursunova
25.	Ijtimoiy profilaktika, oilaviy nizolarning oldini olish, reproduktiv salomatlikni mustahkamlash borasida targ'ibot tadbirlarini amalga oshirishda mahallada xotin-qizlar faollarining amalga oshirayotgan ishlari samaradorligi to'g'risida.	Aprel oyi	Shahar hokimi o'rinbosari – oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i L.Tursunova

Zarafshon shahar hokimining
2025-yil 23-apreldagi
109-5-78-Q/25-son qaroriga
6-ilova

Zarafshon shahar hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhining 2025-yil I yarim yillikka mo'ljallangan

ISH REJASI

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Ijro muddati	Mas'ullar
I. Kadrlar bilan ishlash yo'nalishida			
1.	Shahar hokimligi nomenklaturasiga kiruvchi lavozimlar uchun amaldagi va istiqbolli zaxira kadrlar ro'yxatini tuzish, zaxiraga olingan kadrlar bazasini shakllantirish, ularning malakasini belgilangan tartibda oshirish choralarini ko'rish hamda ular uchun maqsadli o'quv-seminarlarini tashkil etish.	Belgilangan muddatlarda	Shahar hokimi o'rinbosarlari, shahar hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi (Sh. Sirojov, Sh. Xayrullayev)
2.	Shahar hokimi o'rinbosarlari tarkibida yuz berayotgan o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni Navoiy viloyati hokimligiga belgilangan tartibda taqdim etib borish.	Doimiy	Shahar hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi (Sh. Sirojov, Sh. Xayrullayev)
3.	Rahbar kadrlar tarkibida yuz berayotgan o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni aholiga va jamoatchilikka belgilangan tartibda yetkazib borish.	Doimiy	Shahar hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi (Sh. Sirojov, Sh. Xayrullayev), shahar hokimligi axborot xizmati rahbari – matbuot kotibi G. Jabborova
4.	“Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy-apparat kompleksi (my.mehnat.uz)ga xodimlarning mehnat munosabatlariga oid ma'lumotlarini belgilangan tartibda kiritib borish.	Har oy davomida	Shahar hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi (Sh. Sirojov, Sh. Xayrullayev)
5.	Bo'shab qoladigan rahbarlik lavozimlariga nomzodlarni har tomonlama o'rganib chiqish va munosib deb topilgan shaxslarni tavsiya etish bo'yicha tegishli ishlarni tashkil etish.	Har oy davomida	Shahar hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi (Sh. Sirojov, Sh. Xayrullayev)
